

Aholini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy etiladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-oktyabr kuni aholini uy-joy bilan ta'minlash va ipoteka bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Eslatib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi qarori, oradan bir oy o'tib, ya'ni 22-noyabrda "2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ko'rinib turibdiki, endilikda qishloqlar ham, shaharlar ham ulkan bunyodkorlik ishlari bilan qamrab olindi. Hamma joyda uylar qurilishi jadal tus oldi.

2016-yilda davlat dasturlari doirasida qishloqlarda 13 mingta turar joy, tadbirkorlar tomonidan 13 ming 189 xonadonli uy qurilgan bo'lib, buning uchun 4 trillion 330 milliard so'm sarflangan. 2017-yilda esa davlat dasturlari doirasida qariyb 29 mingta, jumladan, qishloqlarda 20,3 mingta, shaharlarda 8,5 mingga yaqin turar joy qad ko'targan. Shuningdek, tadbirkorlar tomonidan 16 mingdan ziyod xonadonli uy qurilgan. Ya'ni, umumiy hisobda qariyb 45 mingta uy-joy barpo etilib, buning uchun 6,2 trillion so'm sarflangan.

O'tgan yili bunyodkorlik ko'lami yanada kengaydi. Xususan, davlat dasturlari doirasida 42,2 mingta, jumladan, qishloqlarda 25,3 mingta, shaharlarda qariyb 17 ming turar joy, tadbirkorlar tomonidan jami 19,7 ming kvartiradan iborat uylar qurilgan. Ya'ni, qariyb 62 mingta uy-joy barpo etilib, 12 trillion 130 milliard so'm sarf-xarajat qilingan.

Joriy yilning o'tgan davrida davlat dasturlari doirasida qariyb 30 mingta, jumladan, qishloqlarda 15 mingdan ziyod, shaharlarda 15 mingga yaqin turar joy, tadbirkorlar tomonidan esa jami 19,5 ming xonadonni o'z ichiga olgan uylar barpo etilgan. Umumiy hisobda qariyb 49,5 ming uy-joy qurilib, buning uchun 12 trillion 24 milliard so'm yo'naltirilgan.

Hisob-kitoblarga ko'ra, xalqimiz ehtiyojini to'la qondirish uchun har yili 145 ming xonadondan iborat uylar qurish kerak. Buning uchun esa, qariyb 30 trillion so'm zarur bo'ladi. Bu mablag' davlat byudjetining 23 foizidan ziyodini tashkil etadi.

O'z-o'zidan ayonki, davlat byudjetining buncha qismini birgina shu sohaga ajratib

bo'lmaydi. Shuningdek, davlat xususiy sektor ishtirokisiz aholi ehtiyojini to'la qondirishi qiyin. Shu bois, yig'ilishda ipoteka tizimiga bosqichma-bosqich bozor mexanizmlarini joriy etish, sohada xususiy sektorning o'rnini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Yangi tizimga muvofiq, ko'p qavatli uy-joy qurilishi tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat tomonidan yer va ipoteka krediti uchun banklarga mablag' ajratiladi.

Uy-joylar narxining oshib ketmasligi va hamyonbop bo'lishini ta'minlash bo'yicha ham zarur choralar ko'riladi. Xususan, 2020-yildan boshlab 16 mingta oilaga boshlang'ich badal va kredit foiz xarajatlari uchun byudjetdan subsidiya ajratiladi. Ushbu subsidiyalar orqali uylar boshlang'ich badalining 10 foizi hamda Toshkent shahri uchun 12 foiz, qolgan shaharlarda 10 foizdan yuqori kredit foizlari qoplab beriladi. Mazkur yangi tizim kelasi yildan Andijon, Namangan, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Toshkent viloyatlarida va poytaxtimizda tajriba tariqasida joriy etiladi. Qolgan hududlarda eski tartib saqlanib qolib, yangi tizim unga raqobatchi bo'ladi.

Yig'ilishda uy-joylarni tanlashda haqiqatan muhtoj oilalarni tanlab olish mezonlari yo'qligi, tanish-bilishchilik va suiiste'mol holatlari borligi tanqid qilindi.

Mutasaddilarga kam ta'minlangan oilalarni tanlashning shaffof mezonini ishlab chiqish, Iqtisodiyot va sanoat vazirligining tuman (shahar) bo'limlarida Doimiy ishchi komissiyalari tuzish bo'yicha topshiriq berildi. Komissiyada bank, moliya, soliq, mahalla va boshqa idoralar vakillari ishtirok etishi, uylarni berish keng jamoatchilik bilan muhokama qilinishi zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda qishloqlarda uy-joy qurish tizimini isloh qilish masalasiga ham e'tibor qaratildi. Bu borada ham raqobat va sifat bo'lishi uchun buyurtmachi funksiyasi "Qishloq qurilish invest" injiniring kompaniyasidan bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazilishi belgilandi. 2020-yilda 12 mingta uy-joydan 8 mingtasi amaldagi tartib bo'yicha, 4 mingtasi xususiy sektor tomonidan qurilishi ko'zda tutilgan. Shu munosabat bilan Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga uy-joylarni xususiy sektor tomonidan qurishning yangi tartibini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Uylar narxini tushirish va sifatini oshirish uchun innovatsion qurilish materiallaridan keng foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Masalan, g'isht o'rniga gazobeton va penobetondan foydalanilsa, ishlab chiqarishda gaz sarfi 8 barobar kamayadi hamda issiqlik saqlash 5 barobar oshadi.

Yig'ilishda, shuningdek, shaharsozlik normalarini takomillashtirish, qishloqlarda qurilayotgan uylarni muhandislik infratuzilmasiga ulash, ekin yerlariga o'zboshimchalik bilan uy-joy qurilishining oldini olish va muhofazasini kuchaytirish masalalari ham

muhoqama qilinib, zarur chora-tadbirlar ko'rsatib o'tildi.

Muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axboroti tinglandi va amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

O'ZA